MASTERCARD KARTA EGALARI UCHUN
«11.11 VA BLACK FRIDAY»
AKSIYASINI O‘TKAZISH QOIDALARI

I. UMUMIY QOIDALAR

1. «11.11 va Black Friday» aksiyasi (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) «Tenge Bank» ATBning (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi) Mastercard (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi Hamkori) bilan hamkorlikdagi «Chegarasiz Mastercard» dasturi doirasida xorijda xaridlarni amalga oshirishda Tashkilotchining Mastercard kartalaridan foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida o‘tkaziladi.
2. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi, ishtirokchilar Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy xavf-xatarlarga duchor bo‘lmaydilar va u mazkur Qoidalarga muvofiq o‘tkaziladi. Aksiyani o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan to‘lov kiritilishi bilan bog‘liq emas, Aksiya budjeti esa faqat Tashkilotchi Hamkorining mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.
3. Mazkur Qoidalar Aksiya o‘tkaziladigan shaxslar doirasini, keshbek hisoblash shartlarini, limitlarni, shuningdek uni to‘lash tartibi va muddatlarini belgilaydi.
4. Mazkur Qoidalarning amal qilishi «Tenge Bank» ATBning barcha tarkibiy bo‘linmalariga: BXM, BXO, amaliyot boshqarmalari yoki bo‘limlari va hokazolarga tatbiq etiladi.
5. Tashkilotchi Hamkori bilan birgalikda «Tenge Bank» ATB Aksiya Tashkilotchisi hisoblanadi.
6. Tashkilotchining yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100027, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, O‘qchi MFY, I. Karimov ko‘chasi, 1, 1-b uy.
7. Tashkilotchi Aloqa markazining telefon raqami: 1245.

II. AKSIYANI O‘TKAZISH MUDDATLARI VA JOYI

8. Aksiya «Tenge Bank» ATB mijozlari – Mastercard karta egalari uchun o‘tkaziladi; Aksiyada xorijda amalga oshirilgan xaridlar inobatga olinadi.
9. Aksiya 01.11.2026-yildan 30.11.2026-yilgacha (shu kuni ham) o‘tkaziladi.
10. Aksiya budjeti tugagan taqdirda, u muddatidan oldin yakunlanadi.

III. AKSIYA ISHTIROKCHILARI

11. Aksiyada «Tenge Bank» ATBda emissiya qilingan barcha Mastercard karta egalari (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchi) ishtirok etishlari mumkin.

IV. KESHBEK MIQDORI VA AKSIYA BUDJETI

12. Keshbek xorijdagi xaridlar summasining 10 foizini (10%) tashkil etadi.
13. Aksiyada ishtirok etish uchun minimal xarid summasi – $20 dan boshlanadi (bank protsessing tizimi kursi bo‘yicha so‘m ekvivalentida).

14. Keshbek limitlari:
    - bitta xarid uchun 50 000 so‘mgacha;
    - Aksiya o‘tkazish davrida bitta mijoz uchun 150 000 so‘mgacha.
15. Misol: AliExpress’da 300 000 so‘mlik xarid amalga oshirilganda, keshbek 30 000 so‘mni tashkil etadi.
16. Aksiya budjeti – 210 mln so‘m bo‘lib, Tashkilotchi Hamkorining mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.

V. AKSIYANI O‘TKAZISH SHARTLARI VA TARTIBI

17. Xorijda ro‘yxatdan o‘tgan merchantlarning do‘konlarida va onlayn tarzda $20 dan boshlab (bank protsessing tizimi kursi bo‘yicha so‘m ekvivalentida) amalga oshirilgan xaridlar (tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlar) inobatga olinadi. Mastercard to‘lov tizimidan olingan karta operatsiyasi ma’lumotlarida merchantning mamlakat kodi O‘zbekiston Respublikasidan farq qiladigan operatsiya xorijdagi xarid deb e’tirof etiladi (ekvayer mamlakati inobatga olinmaydi). Operatsiya tavsifi (kvalifikatsiyasi) ushbu ma’lumotlar asosida aniqlanadi va barcha Ishtirokchilarga birdek qo‘llaniladi.
18. P2P o‘tkazmalari, naqd pul yechib olish va kvazi-kesh operatsiyalari (MCC 4829, 6051, 6540, 6012, 7995) inobatga olinmaydi.
19. Mijoz bo‘yicha limitlar karta bo‘yicha emas, balki JSHSHIR bo‘yicha hisoblanadi: bitta mijozning bir nechta kartasi qo‘shimcha bonuslarni bermaydi.
20. Xarid to‘liq bekor qilinganda yoki uning uchun pul mablag‘lari qaytarilganda, bunday xarid uchun hisoblangan keshbek to‘liq hajmda hisobdan chiqariladi; qisman bekor qilinganda yoki qisman qaytarilganda esa – qaytarilgan pul mablag‘lari summasiga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladi. Agar qisman qaytarilgandan so‘ng xarid summasi 240 000 so‘mdan kam bo‘lib qolsa, bunday xarid bo‘yicha keshbek to‘liq hisobdan chiqariladi. Hisobdan chiqarilgan keshbek summasi Ishtirokchi tomonidan foydalanilgan, mazkur Qoidalarning IV bo‘limida ko‘rsatilgan limitni kamaytiradi.
21. Keshbekni hisobdan chiqarish Ishtirokchining karta hisobvarag‘idan amalga oshiriladi. Karta hisobvarag‘ida mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda, hisobdan chiqarilishi lozim bo‘lgan keshbek summasi bank kartasini chiqarish va unga xizmat ko‘rsatish shartnomasida nazarda tutilgan tartibda karta hisobvarag‘iga kelib tushadigan keyingi tushumlardan ushlab qolinadi.
22. «Chegarasiz Mastercard» dasturi aksiyalari o‘zaro kesishmaydi: noyabr oyida 10% keshbek amal qiladi, dekabr–yanvar oylarida – «Yangi yilga 100% qaytarish» yutuqli o‘yini; bitta xarid – bitta mukofot.
23. Tashkilotchi obyektiv sabablar mavjud bo‘lganda, shu jumladan texnik nosozliklar, yengib bo‘lmas kuch (fors-major) holatlari yuzaga kelganda, huquqiy, operatsion yoki boshqa xavf-xatarlar aniqlanganda, shuningdek Aksiyani o‘tkazishga to‘sqinlik qiladigan yoxud uni kelgusida o‘tkazishni maqsadga muvofiq emas deb topadigan boshqa holatlarda mazkur Qoidalarga bir tomonlama tartibda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek Aksiyani o‘tkazishni muddatidan oldin to‘xtatib turish yoki tugatish huquqiga ega. Aksiya Qoidalariga kiritiladigan o‘zgartirishlar/qo‘shimchalar oldindan, uch ish kuni avval Tashkilotchining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi. Tashkilotchi Ishtirokchida Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq holda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlar, chiqimlar va har qanday boshqa xarajatlarni qoplamaydi va kompensatsiya qilmaydi.
24. Mazkur Aksiyani o‘tkazish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Tashkilotchi va Ishtirokchi o‘rtasida yaxshi niyat va o‘zaro anglashuv asosida muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida ko‘rib chiqilishi lozim.

25. Aksiyada ishtirok etish faqat mazkur Qoidalarning barcha talablariga so‘zsiz rioya qilish sharti bilangina mumkin.

VI. KESHBEKNI TO‘LASH TARTIBI VA MUDDATLARI

26. Keshbek xarid amalga oshirilgan kartaga keyingi oyning 15-sanasiga qadar to‘lab beriladi.

VII. AKSIYA ISHTIROKCHILARINI AKSIYANI O‘TKAZISH SHARTLARI, AKSIYANI O‘TKAZISHNI TO‘XTATIB TURISH YOKI MUDDATIDAN OLDIN TUGATISH TO‘G‘RISIDA XABARDOR QILISH TARTIBI

27. Aksiya Ishtirokchilarini uni o‘tkazish shartlari va tartibi to‘g‘risida xabardor qilish Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida va boshqa mavjud kommunikatsiya kanallarida reklama materiallarini joylashtirish orqali amalga oshiriladi. Aksiyaning reklama kuzatuvi 01.11.2026-yildan boshlanadi.
28. Aksiya haqida batafsil ma’lumot, shuningdek Aksiya Qoidalari Tashkilotchining www.tengebank.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.
29. Aksiya haqida qo‘shimcha ma’lumotni 1245 telefon raqami orqali ham olish mumkin.
30. Aksiyani o‘tkazish muddatidan oldin tugatilgan, uni o‘tkazish muddatlari uzaytirilgan yoki Qoidalarga o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda, tegishli ma’lumot www.tengebank.uz saytida joylashtiriladi.